



Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!2023-yil 10-jyun, shanba,
69 (23.790)-son

**KUN
HIKMATI**
Ziyolilik faqat
ilmilik degani
emas, o'z faoliyati
bilan boshqalarga
ibrat bo'lish
hamdir

www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

O'zbekiston Ekologik partiyasidan
O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga
nomzod Abdushukur Xudoyqulovich
Hamzayev samarqandlik saylovchilar bilan
uchrashdi.

YASHIL TARAQQIYOT UCHUN!



Uchrashuvda mahalliy Kengashlar deputatlari,
ekolog olimlar, mahalla faollari, ta'lum, tibbiyot sohasi
vakillari, yoshlar, partiya faollari hamda ommaviv
axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod
A.Hamzayev o'z saylovoldi dasturining asosiy yo'nalishlari
bilan saylovchilarni tanishtirdi.

Xususan, O'zbekiston Ekologik partiyasi o'z oldiga
qo'yan ulkan maqsad va vazifalaridan kelib chiqib,
muddatidan oldin o'tkazilishi belgilangan prezidentlik
saylovida "Yashil taraqqiyot uchun!" shiori ostida
ishtirok etishga qaror qilganini ta'kidladi.

Nomzodning saylovoldi dasturida mamlakatimizda
iqtisodiyoti islon qilishga qaratilgan bir qator muhim
tashabbuslar ilgari surilmoqda. Jumladan, "Yashil
viza" dasturini joriy etish, tarmoqlar va hududlarning
"yashil iqtisodiyotga o'tish indeksi"ni ishlab chiqish, yuk
tashishni yirik mashinalardan temir yo'llarga o'zgartirish
qaralitigan choralar alohida e'tirof etildi.

Ijtimoiy sohada davlat stomatologik klinikalarini rivojlanish,
shaharlar bosh rejalarini tuzishda kamida 30
foizli yashil maydonlar yaratish talabini mustahkamlash,
shaharsozlik faoliyatida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish,
normativ hujjalarni qabul qilishda atrof-muhitga
ta'sirini baholash tizimini joriy etish kabi e'tiborga molik
tashabbuslar ilgari surildi.

Shuningdek, nomzod saylovoldi dasturida aholining
kulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlashga
qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishda quydagi
larga e'tibor qaratishini aytib o'tdi:

Davlat ekologik siyosatining ustuvor yo'nalishlarini
belgilashga qaratilgan "Barqaror ekologik rivojlanish
Strategisi" ishlab chiqiladi.

Yana bir muhim masala: ekologiya sohasidagi
tarjqoq qonunchilik hujjalarni kodifikatsiya qilish orqali
tabiy resurslardan oqilona foydalanan tartibi va talablar
yagona sohaviy kodekslar – Ekologiya kodeksi, Suv
kodeksi, O'rmon kodeksida mustahkamlanadi.

Bugun butun dunyo ekologik muammolar girdobida
qolay atrof-muhitga har birimiz yaxshi anglab turibmiz. Saylovchilar ham prezidentlikka nomzodning saylovoldi
dasturidagi ana shu masala bo'yicha takliflariga e'tibor
qaratib, nomzodning saylovoldi dasturini qo'llab-quvvatlashga
tayyor ekanliklarini bildirib o'tshidi.

Uchrashuv qizq'in fikrlari, taklif, muhokamalarga boy
bo'ldi.

O'z muxbirimiz.

EKSPORTCHILAR QO'LLAB-QUVVATLANADI



Joriy yilda viloyatimizda umumiyy qiymati 2 milliard
AQSh dollaridan ko'proq bo'lgan 500 dan ortiq yangi
loyihani amalga oshirish belgilangan. Bu maqsad-
ga asosan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni
o'zlashtirish orqali erishish rejalashtirilgan.

Viloyat hokimligida yangi investitsion loyihalarini hayotga tatabiq
etish va eksportni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar muhokama
etildi.

Ta'kidlandiki, mamlakatimizda qulay biznes muhitini yaratish
borasidagi ishlar natijasida so'nggi yillarda har bir tuman va
shaharga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirdi.

Eksportyor korxonalar soni
ko'paydi. Eksport qilinayotgan
mahsulot turlari bir baravarga
ko'payib, salkami 3 mingtaga yetdi.
Bugungi kunda viloyatimizning

eksport geografiyasi 160 dan
ortiq mamlakatni tashkil etmoqda.
Tayyor mahsulot eksporti ikki
baravarga ko'payib, tovarlar eksportidagi ulushi 60 foizga yaqinlashdi.

Yig'ilishda viloyat hokimi o'rinos
bosarlari, tuman va shahar hokimlari
hamda mutasaddilar bu borada
amalga oshirayotgan ishlar yuzasidan
hisobot berishdi.

Har bir hisobot atroficha
muhokama etilib, yo'l qo'yilgan
xato va kamchiliklar ko'rsatib o'tildi.
Loyihalarini amalga oshirishda
yuzaga kelayotgan muammolarni

tezkor bartaraf etish bo'yicha
tarmoq mutasaddilariga aniq vazifalar
belgilab berildi.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov
ayni paytdagi natijalar yetarli
emasligi, bundan ikki-uch karra
ko'proq harakat qilish zarurligini
ta'kidladi. Shuningdek, loyihalarini
amalga oshirayotgan tadbirkorlarga
muammona yuzaga kelganda
to'g'ridan-to'g'ri viloyat hokimiga
murojaat qilishlari mumkinligini
hamda hokimlik ularga ko'makchi
bo'lishini bildirdi.

Yig'ilish yakunida ishga tushadigan
loyihalar jirosini huddular
va komplekslar kesimida haftalik
nazorat qilib, muammolarga yechim
topish zarurligi, tashqi bozorlarni
tahlil qilib, yangi bozorlarni
o'zlashtirish bo'yicha mutasaddilar
ga ko'rsatmalar berildi.

Matonatlilar bahsida Osiyo championlari aniqlandi



Samarqanda O'zbekiston tarixida ilk
bor "Paratriation bo'yicha Samarqand
– 2023 Osiyo championati" o'tkazildi.

Unda 80 nafr ishtirokchi 750 metr masofaga
suzish, 20 kilometr velosipedda harakatlanish, 5
kilometrga yugurish bahlarsida qatnashdi.

- Xalqaro musobaqada yigirmaga yaqin davlatdan
300 nafradan ortiq sportchi ishtirok etmoqda,
- deydi viloyat yoshlar siyosati va sport boshqarmasi
boshlig'i Shuhrat Ro'ziyev. - Mazkur championat

sentabr oyida o'tkaziladigan jahon kubogi oldidan
tayyorgarlik vazifasini o'taydi. Shuningdek, ushu
musobaqa sportchilarga xalqaro reyting ochkolari
berish bilan birga, viloyatimizda turizmni rivojlantirishga
xizmat qiladi.

Championat 9 toifada o'tkazildi va har bir toifa
bo'yicha g'oliblar taqdirlandi. Musobaqada 6 nafr
paratriationchi yurtimiz sharafini himoya qildi.

- Paratriationlonda birinchilari ishtirok etdi,
- deydi O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Saidabar G'oziyev. - Shu paytgacha suzish sporti bilan
shug'ullanib kelardim. Yurtimizda o'tkazilgan ilk
Osiyo championatida PTS-2 toifasi bo'yicha g'olib
kuboni qo'lgan kiritdim. Endi ushu sport turi bilan
professional darajada shug'ullanib, bundan-da yuksak
natijalarga erishmoqchiman.

Bugun, 10-iyun kuni "Samarqand – 2023 Osiyo
triathlon kubogi" bo'lib o'tadi. Unda dunyoning 50
nafr ayol va 50 nafr erkak eng yaxshi sportchilari
ishtirok etdi. Elita sportchilari olimpiya masofasida
1500 metrga suzish, 40 kilometr velosipedda
harakatlanish, 10 kilometr yugurish bo'yicha belashadi.
Shu kuni Osiyo kubogi doirasida Markaziy Osiyo
sportchilari o'tasida (CATA – Central Asia Triathlon
Association) alohida musobaqa va taqdirlash
marosimi ham bo'lib o'tadi.

11-iyun kuni esa "Samarqand – 2023, triathlon
bo'yicha O'zbekiston championati" bo'lib o'tadi.
Unda standart va super sprint masofalarda elita,
U23, 15-17 yoshlilar va 16-19 yoshli o'smirlar
o'tasida triathlon bo'yicha milliy yoshlar terma
jamoasiga saralash o'tkaziladi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

**2023
9-IYUL
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI SAYLOVI**

Gazetamizning bugungi sonida saylovoldi tashviqoti
doirasida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan
O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Ulug'bek Inoyatov hamda Tadbirkorlar
va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning
Saylovoldi dasturlaridan o'rın olgan mamlakat taraqqiyoti va boshqa ustuvor yo'nalishlari bo'yicha
tashvuslariiga oid maqolalar chop etilyapti.

Mazkur maqolalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovoldi tashviqoti
uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e'lon qilinmoqda.

2-3-betlarga qarang.

Yoshlar kuni oldidan Bastam uyli bo'ldi

"Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostidagi festival kecha
Qo'shrabot tumanida davom etdi. Ertatongdan "Sog'lon hayot uchun besh
ming qadam" yurish marafoni bilan boshlangan tadbirlar sport musobaqlari,
madaniy-ma'rifiy kechalar, mushoiralar va turli tanlovlarga ularni keldi.

Festival qo'shrabotlik yoshlardan biri Bastam Abdug'aniyev uchun unutilmas onlarni hadya etdi.
Tumanning Mustaqillik mahallasida qurilgan ko'p qavatlari uyning ikki xonaligi qvardilaridan biri unga sovg'a qilindi.

- Onamning qaramog'idan mahrum bo'lganman,
- deydi u. – Otam olamdan o'tgan. Qynalib yurgan
dim. Yoshlar kuni oldidan kutilmaganda menga yangi
xonodon sovg'a qilindi. Juda ham minnatdorman.
Yashash uchun barcha sharotlari mavjud bu uyda
oila qurib, orzu-umidlarimga erishaman.



Festival doirasidagi tadbirlarga faol yoshlar, ularga
yaqindan ko'mak berayotgan mas'ullarni taqdirlash
marosimi va taniqli san'atkorlar ishtirokida
konserst dasturi yakun yasadi.

To'iqin SIDDIQOV,
Islam BOBOQULOV (surat).

ISHONCHLI VAKILLAR SAYLOVCHILAR HUZURIDA

Saylov – 2023

Mamlakatimizda joriy yil 9-iyulda bo'lib o'tadigan prezidentlik saylov kompaniyasi qizq'in davrga kirdi. Markaziy saylov komissiyasining tegishli qaroriga ko'ra 7-iyundan ushbu muhim siyosiy tadbirning muhim bosiqchalaridan biri – Prezidentlikka nomzodlarning saylovoldi tashviqoti boshlandi.

Xususan, Xalq demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Ulug'bek Inoyatovning ishonchli vakili Badriddin Nasriyev Jomboy tumani saylovchilar bilan uchrashdi.

Dastlab ishonchli vakil yig'ilganlari nomzodning tarjimai holi va dasturi bilan tanishtirdi. Dasturda kuchli ijtimoiy siyosat, arzon uy-joy va sifatli kommunal xizmatlar, kafolatli va sifatlari tibbiy yordam ko'rsatish, yoshlar uchun ta'lum kafolatlarni mustahkamlash, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, tovar va xizmatlarning ijtimoiy maqbulligi, ijtimoiy tenglikliy asoslangan demokratiya, sud-huquq islohotlari, konstruktiv tashqi siyosatga oid 9 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha aniq va manzilli taklif hamda tashabbuslar ilgari surilgani qayd etildi.

Uchrashuv qatnashchilari dasturga munosabatlarni bildirib, o'zlarini qiziqitqagan savollariga javob oldi.



Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning ishonchli vakili Rustam Xolmurodov samarqandlik saylovchilar bilan uchrashdi.

Unda hudud faollari, mahalliy kengash deputatlari, keng ja-

moatchilik vakillari hamda OAV xodimlari ishtirok etdi.

Ishonchli vakil saylovchilarini nomzodning hayoti, mehnat faoliyati, besh-

ta ustuvor maqsadini qamrab olgan saylovoldi dasturi bilan tanishtirdi.

Xususan, Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta'lum va tarbiya bo'lishi uchun zarur sharoitlarni yaratish siyosatimizning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishini, 2030-yilga qadar maktab-

gacha ta'limga bo'lgan ehtiyoj to'liq qoplanib, qamrov 100 foizga yetkazilishi va bog'chalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilishini aytib o'tdi.

2030-yilga qadar qo'shimcha 2 mingta bog'cha qurish choralarini ko'riladi. Ehtiyojmand oilalar farzandlari uchun bog'cha, shu jum-

ladan, xususiy bog'cha xarajatlari davlat tomonidan qoplab berish tartibi joriy etilishi e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod – Maxmudova Robaxon Anvarovnaning viloyatdagagi ishonchli vakili Muzaffara Abdiyevanining saylovchilar bilan uchrashuvli Samarcand shahridagi kasbga o'qitish monomarkazida tashkil etildi.

Keng jaatchilik vakillari, partiya faollari, deputatlar hamda OAV vakillari ishtirok etgan muloqot avvalida ishonchli vakil nomzodning tarjimai holi bilan ishtirokchilarni tanishtirdi va saylovoldi dasturidan o'rın olgan xalqchil va ustuvor g'oyalarning maqsad va vazifalari, mazmun-mohiyati to'g'risida ma'lumot berdi.

Ishonchli vakil qayd etganidek, qonun asosida yashash har birimizning hayot tarzimizga aylanishi zarur. Buning uchun eng avvalo, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi ta'minlanishi shart. Konstitutsion bilimlarimiz mustahkam bo'lsa, jamiyatda sodir bo'ladigan ko'pgina muammolaring oldi olinadi.

Qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan nomzodning maqsadlari uchrashuv ishtirokchilari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Fikr va mulohazalarga boy bo'llgan uchrashuv so'ngida saylovchilar savollariga ishonchli vakil tomonidan batafsil javoblar berildi.

ADOLAT
SOTSIAL-DEMOKRAT

XALQ DEMOKRATIK PARTIYASIDAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTLIGIGA NOMZOD DASTURIDA IJTIMOIY DAVLAT KONSEPSIYASI



uy-joy va sifatli kommunal xizmatlar, kafolati va sifatli tibbiy yordam ko'rsatish, yoshlar uchun ta'lif kafolatlarini mustahkamlash, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, tovar va xizmatlarining ijtimoiy maqbulligi, ijtimoiy tenglikka asoslangan demokratiya, sud-huquq islohotlari, konstruktiv tashqi siyosatga oid 9 ta ustuvor yo'naliш bo'yicha aniq va manzilli taklif hamda tashabbuslar ilgari surilgan.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining dasturiy maqsadi – ijtimoiy davlat konsepsiysi. Shu bois ham nomzodning dasturida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan ijtimoiy davlat maqomidan kelib chiqib, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini samarali amalga oshirish mehanizmlarini mustahkamlash hamda demokratik ijtimoiy davlatni barpo etishga alohida e'tibor qaratilgan.

Ma'lumki, ijtimoiy siyosat har bir davlat rivojlanishi va boshqaruvining, ta'bir jozi bo'lsa, tayanch ustunidir. Jamiyatdagi turli shaxstar va turli guruhlar o'ttasidagi tenglikni tartibga solishda, ijtimoiy adolat va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashda uning o'rni beqiyos. Tadqiqotchi olimlar ijtimoiy siyosatni tarixiy fenomen sifatida XX asning ikkinchi yarmida qaror topgan, degan qarashni ilgari sursalar-da, olib moziy insoniyat tamaddunida ijtimoiy tengsizlik va ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etishda iqtisodiy, huquq va boshqa ta'sir mehanizmlarini amalda qo'llagan davlatlar safi oz bo'lmaganini ko'rsatadi.

Ijtimoiy davlat barpo etishni o'zining eng olib maqsadi deb bilgan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining mamlakat prezidentligiga nomzod tomonidan ilgari surilayotgan **dastur ayanan shu haqiqat asosiga qurilgan**.

Mohiyatan turli ijtimoiy guruhlar va shaxslarning iqtisodiy holati, ular o'ttasidagi daromadlar, iste'mol ko'rsatkichi, mehnat sharoitlari, sog'iqliqi saqlash va boshqalar bo'yicha farqlarni aniqlab, tengsizlik sabablarini o'rgangan holda mavjud ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etishning uzil-kesil chora-tadbirlarini taklif qilayotgan ushbu dastur "**Davlat aholi manfaatlarini to'laqoni ta'minlash maqsadida kuchli ijtimoiy siyosat yuritishi lozim**", degan pozitsiyani tutgan holda qator aniq va puxta g'oya va tashabbuslarni qamrab olgan.

Ma'lumki, mamlakatimizda xususiy sektor rolini yanada oshirish yo'lidagi islohotlar salohiyatlari mulkdorlar safining tobora kengayishiga zamin yaratmoqda. Ular elu yurt ravnaqini jadallashiruvchi kuch sifatida maydonga chiqmoqdalar. Bu yaxshi, albatta. Shu bilan birga, davlat va jamiyat ko'magini u yoki bu shakllarga ehtiyojmand qatlarni vakillari ham bor. Keksalor, nogironlar, boquvchisini yo'qotganlar, ishsizlar, bolalar hamda boshqua ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar mavjudligi e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Mustaqil taraqqiyot yo'lidan dadil odimlayotgan O'zbekiston ijtimoiy davlat sifatida namoyon bo'lishi tabiiy. Jumladan, buning huquqiy negizini O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 1-moddasida belgilangan asosiy qoidalardan tashkil etadi. Yugorida keltirilgan dasturda kuchli ijtimoiy siyosat yuritishda, avvalambor, aholining ehtiyojmand qatlamlari yashash sharoitlarini yanada yaxshilash kerakligi bayon etilgani sababi ham shunda.

To'g'ri, o'tgan yillarda davomida davlatimiz bu oson bo'lmagan vazifani ma'lum darajada uddalab kelmoqda. **Ta'lif, tibbiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy qatlarni moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlash** sohalarida hattoki ko'pgina davlatlarga ibrat bo'lgulik tajriba shakllandi.

Biroq har bir insonning baxtli va farovon yashashga haqiqi bo'lganidek, ehtiyojmand fuqarolarning munosib hayot kechirishi uchun **bugungi davr davlatimiz oldiga yangidan-yangi vazifalar qo'ymoqda**. Ayniqsa, o'tgan yillarda sodir bo'lgan global pandemiya va uning oqibatlarini jamiyatda barqaror kayfiyat bo'lishi uchun izchil ijtimoiy islohotlar nechog'lik muhimligini ko'rsatdi.

Ehtiyojmand qatlarni vakillarining turmush darajasini ko'tarish haqida so'z borar ekan, bunda eng ilg'or xorijiy tajribalar asosida kambag' allik chegarasini qayta ko'rib chiqish hamda undan past daromad oluvchi fuqarolarga amaliy ko'maklashish chora-tadbirlarini yangi bosqichga olib chiqish talab etiladi. Dasturda buning mantiqiy davomi sifatida har bir insonning birlamchi hayotiy ehtiyojlariga yetadigan eng kam iste'mol xarajatlarini qonun darajasida belgilash, ushbu maqsadda "Eng kam iste'mol xarajatlarini belgilash tartibi to'g'risida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqish masalasi ham e'tibordan chetda qolmagan.

Chunki har yili mamlakatimizda minimal iste'mol xarajatlarini qiymati va kambag' allik chegarasi inflatsiya

Joriy yil 5-iyun sanasida Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan Ulug'bek Ilyasovich Inoyatovni O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko'rsa-

tilgan nomzod sifatida ro'yxatga oldi. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko'rsa-

tilgan nomzodning dasturi shu yil 29-may sanasida bo'lib o'tgan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi-

ning XIII qurultoyida bir ovozdan ma'qullangan edi.

Mazkur dasturda kuchli ijtimoiy siyosat, arzon

ta'lif kafolatlarini mustahkamlash, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, tovar va xizmatlar-

ning ijtimoiy maqbulligi, ijtimoiy tenglikka asoslangan demokratiya, sud-huquq islohotlari,

konstruktiv tashqi siyosatga oid 9 ta ustuvor yo'naliш bo'yicha aniq va manzilli taklif hamda

tashabbuslar ilgari surilgan.

darajasidan kelib chiqib e'lon qilinayotganiga qaramay, bu borada ma'lum bir huquqiy bo'shlilqar yuzaga kelganligi sir emas. Ayni yo'naliшida xalqaro standartlarga mos, takomillashgan tashkiliy-huquqiy mexanizmni shakkantirish hamda jamiyatimizda yuzaga keladigan bu boradagi muhim savollarning huquqiy jihatdan yechimini topish vaqtiga kelgan.

Har yili yuzlab emas, balki yuz minglab ishga layoqatli yigit-qizlar kirib kelayotgan mehnat bozorini tartibga solish, fuqarolarni ishsizlikdan himoya qilish va shu orgali kambag' allikni qisqartirish, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar hamda nojronligi bo'lgan shaxslarga har taraflama g'amxo'rlik qilish kuchli ijtimoiy siyosat yuritishda qurvatdagi dolzarb vazifa sifatida keltiriladi dasturda.

Bunda, ayniqsa, yurtimiz aholisining yarmidan ko'prog'ini tashkil etidigan yoshlarning kasb-hunar tanlashi, bepul ta'lif olishi, o'quv muassasalarini tugatganda so'ng ishga joylashish kafolatlarini mustahkamlash, ish bilan ta'mirlanmagan fuqarolarni, xususan, ishsiz ayollar sonini kamaytirish, fuqarolarning kambag' allik holatiga tushib qolishining oldini olish yoki kambag' allik toifasiga kirgan fuqarolarni undan chiqarish bo'yicha davlat tomonidan tegishli choralarini ko'rish ayni muddaodir.

Ta'kidlash kerakki, bugun jamiyatimiz hayotida uchrayotgan aksariyat muammolar, yoshlar, xotin-qizlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar ortida ko'pincha ishsizlik bilan bog'liq masalalar turadi. Shu sababda bu borada yanada samarali yechimlarni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozim.

Dasturda kam ta'minlangan, lekin **boqimandalik kayfiyatida yurgan fuqarolarni jamiyatimizning faol ishtirokchisiga aylantrish masalasi ham alohida ko'rsatilgan**. Bu nima degani? Nahotki odamlarimiz orasida hamon boqimandalik kayfiyatni kuzatilayotgan bo'lsa?

Xalqimizning omilkorlik, mehnatsevarlik fazilatlariga aslo daxil qilmagan holda, bilagida kuchi bor-u, eshigi, og'zida qarovsiz yotgan o'n sotix yerga bitta nihol qadasni istamaydiganlar ham uchrab turishini yashirmaylik. Qo'pol qilib aytganda, "Bersang – yeyman, ursang – o'laman" qabilida davlat tomonidan beriladigan yordam ilinjida kun o'tkazish kayfiyatida yashayotganlar oramizda topiladi. Xo'sh, bunday sharoitda bu toifa insonlarning hayotiy qarashlarini, maqсадalarini o'zgartirish, ijtimoiy faoliyoti uyg'otish davlat va jamiyat uchun koni foysa-ku! Qolaversa, qo'l bilan sharoitda qurvatdagi qo'zilgani lozim.

Shu bilan birga, jamiyatda shunday qatlarni vakillari borki, ularni qashshoqlikdan himoyalash, **konstitutsiyavi huquqlarini ro'yobga chiqarishi uchun davlat tomonidan zarur yordamlar ko'rsatilishi short** va bu ijtimoiy adolat tamoyiliga xizmat qiladi. Ular pensiya va naqaqa oluvchilardir.

Mamlakatimizda 60 va undan katta yoshdagilari fuqarolar soni yildan-yilga oshib borayotganligini inobatga olib, XDP nomzodi dasturida **pensiya hamda ijtimoiy naqaqlarning insonning hayotiy ehtiyojlarini to'laqonli qondirishiga erishish maqsadini ustuvor qilib keltirgani e'tirofga loyiqa** yana bir jihatdir.

Dasturga muvofiq, er yoki xotini vaqt etganida va vaftot etgan shaxs ko'proq pensiya olib qoladigan, ushu pensiyani uning hayot bo'lgan turmush o'rtoq'iga o'tkazib berish (**pensiyanı almashtirish**) tartibi joriy etilishini ijtimoiy adolat mezonlari uyg'un tashabbus sifatida baholash mumkin.

Ehtiyojmand qatlarni vakillarining turmush darajasini ko'tarish haqida so'z borar ekan, bunda eng ilg'or xorijiy tajribalar asosida kambag' allik chegarasini qayta ko'rib chiqish hamda undan past daromad oluvchi fuqarolarga amaliy ko'maklashish chora-tadbirlarini yangi bosqichga olib chiqish talab etiladi. Dasturda buning mantiqiy davomi sifatida har bir insonning birlamchi hayotiy ehtiyojlariga yetadigan eng kam iste'mol xarajatlarini qonun darajasida belgilash, ushbu maqsadda "Eng kam iste'mol xarajatlarini belgilash tartibi to'g'risida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqish masalasi ham e'tibordan chetda qolmagan.

Chunki har yili mamlakatimizda minimal iste'mol xarajatlarini qiymati va kambag' allik chegarasi inflatsiya

ko'p ham imkon berilavermaydi.

Ularning ta'lif olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, mehnat qilish huquqlarini ta'minlashda ayrim o'zini oqlamagan tartib-me'yorlardan voz kechilganicha yo'q. Bu toifa insonlarga e'tibor biringa binolarda lift yoki pandus o'rnatish, oylak nafaqasini berish bilaniga chegaralanmaydi. Hozirgi zamон barcha fuqarolar, shu jumladan, nogironligi bor shaxslar uchun o'z haq-huquqlaridan foydalanishda teng imkoniyatlarni beradigan inkyuziv jamiyatni yaratishni, davlatdan barcha dasturlarda nogironlarning ehtiyojlarini hisobga olish va ularning hayotning barcha jabhasida ishtirok etishini kafolatlash majburiyatini talab etmoqda.

Dasturda mazkur yo'naliшida milliy qonunchilikni BMTning Nogironlar huquqlari bo'yicha konvensiyaning tamoyillari va me'yorlariga muvoqiflashtirish; nogironligi bo'lgan shaxslarga oid xalqaro me'yorlar va standartlarni milliy Qonunchilikka implementatsiya qilish; mamlakatimizda BMTning Nogironlarga nisbatan umumjahon harakatlar dasturini amalga oshirish bo'yicha zaruriy choralar ko'rish vazifalari o'z ifodasini topgan. Bularning bari pirovardida nogironligi bor insonlarning turmush sifatini yaxshilashda xalqaro ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq etishga keng yo'l ochadi.

Fuqarolari uchun farovon hayot yaratishni, barqaror rivojlanish yo'lini tanlagan davlat borki, bu chaqirilarga e'tiborsiz qolmaydi. O'zbekiston ham inchunun XDPdan O'zbekiston Prezidentligiga nomzod U.Inoyatovning dasturi kuchli ijtimoiy siyosat yuritish g'oyasi bilan sug'orilgani uning tom ma'noda insonparvarlik va taraqiyot tamoyillariga uyg'unligini ko'rsatadi.

Uy-joy siyosatida ijtimoiy adolat mezonlari ustuvor bo'lmog'i kerak. Har bir insonning farovon va xotirjam yashashida ilm olish, kasb-hunar egallash, ishsizlikdan himoyalishni kabi haq-huquqlari qatorida uy-joy bilan ta'minlanishi ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, xalqimiz yuli-joyli bo'lishni munosib hayot kechirishning asosiy shartlaridan deb biladi. "Uyi borning o'yi bo'lmaydi", "Uy – Vatan ichra vatan", "O'z uyim – o'lan to'shagim" singari maqollari naqllar jamiyatimizga shu qadar singib ketgani, hali murg'ak o'g'liga ezgu niyat bilan imorat solish uchun terak ekishdek odatlarimiz, zamonlar o'zgarsa-da, unutilgani yo'q. Chindan ham insonning hayotiy ehtiyojlarini, avvalo, muqim va quay boshpanaga ega bo'lishdan boshlanadi. Axir uying bo'lsa, ko'ngling tinch, turmushing halovati, ro'zg'orining but bo'ladi. Darvoqe, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham har kimning uy-joyli bo'lish huquqi qat'iy belgilab qo'yildi (47-modda).

Shu munosabat bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlarni vakillarini, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar, ehtiyojmand va yosh oilalar, alohida yordamga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, ularga subsidiyalar berish, intiyozli va uzoq muddatli ipoteke kreditlar ajarish qamrovini oshirishimiz hamda ularni shu yo'l orqali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sur'atini yanada kengaytirishim lozim.

Xalq demokratik partiyasining O'zbekiston Prezidentligiga nomzodi dasturda bu savolga javoban mazkur yo'naliшida amalga oshirilayotgan ishlar qamrovini bugungi kun nuqtai nazardan kelib chiqqan holda yana-

da yuqori darajaga ko'tarish zarurati mavjudligi qayd etiladi. "Biz kambag' allarga, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar, nogiron farzandlarni tarbiyalayotgan ota-onalar, og'ir ijtimoiy ahvoliga tushsgan ayollar uchun arzon uy-joylar qurilishini yanada kengaytirish tarafadorimiz", deyiladi unda. Va mazkur masalaning yechimi sifatida bir qator vazifalar keltiriladi. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 57-moddasida belgilanganidek "mehnatega layoqatsiz va yo'zilgiz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqar toifalarining huquqlari davlat himoyasida ekanligi" dasturimizda ko'rsatilgan vazifalarining huquqiy asosi hisoblanadi.

Mamlakatimizda zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida qurilish materiallari va konstruksiylar ishlab chiqarishni rag'batlantrish shular sisidasidir.

Ta'kidlash lozimki, bozor munosabatlari sharoitini



uy-joylar tannarxi borasida ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlarni vakillari uchun ham malol kelmaydigan darajada sharoitlarni yaratish choralarini ishlab chiqish, turli yoshdagidagi odamlarning ehtiyojlarini inobatga olib holda ularga barcha quayliklarni yaratish zarurati mavjud. Demak, ushbu maqsadlarga erishish yo'lida xalqaro ilg'or tajribalar asosida qurilish materiallari va konstruksiylar ishlab chiqarishda innovatsion yondashuvlarni jamiyatga tatbiq qilish hamda bu jarayon davlat tomonidan raxbatlantrilishi orqali erishish mumkin.

Dasturdagi kam ta'minlangan aholi uchun arzon uy-joy qurishga imtiyozli ipoteke krediti berish amaliyotini yanada kengaytirish va qonun darajasida tartibga solish, "Uy-joy qurilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Qonun qabul qilish tashabbuslarini ham bugun jamiyatimiza ushbu jahbadagi muammolarning xalqchil yechimi bo'la oladi, deyish mumkin.

Uy-joy qurilishi 2020-yilden e'tiboran nadovalat sektor qo'liga o'tgani aholining bu baradagi ehtiyojini to'la qondirishga, sohada raqobat muhitini yuzaga keltirishga xizmat qilmoqda. Lekin turarjoylar barpo etishda aholi mablag'larini jaib qilg'an ayrim tadbirkorlik subyektlari tomonidan sharhnomha shartlarini o'z vaqtida va sifatli bajmaslik holatlari yuz berayotgan taassufi.

Yangi qurilayotgan ko'p qavatli turarjoydagi xonadon uchun boshlang'ich badal pulini to'lab, bu uy bitishini bir necha

USTUVOR MAQSADIMIZ – INSONGA O'Z SALOHIYATINI RO'YOBGA CHIQARISH UCHUN MUNOSIB SHAROIT YARATISH!

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati
– O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining XI s'ezzida nomzodimiz Shavkat Mirziyoyev uzoq yillarda yig'ilib qolgan, jamiyatda o'z yechimini kutayotgan tizimli muammolar va voqelikni chuqr tahlil qilib, tarixan qisqa vaqtida O'zbekiston davlatchiligidagi mavjud muammolarni hal etish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar bilan bir qatorda, kelgusi yetti yil ichida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor maqsad va yo'naliishlar, strategik vazifalarini bayon etdi. Ular, shubhasiz, bugundan qurilayotgan kelajagimiz, barpo etiladigan ertangi kunimiz qiyofasini aniqlab beradi.

Ushbu strategiyaning eng ustuvor yo'naliishi har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratishdan iborat.

SIFATLI BILIM, TA'LIM VA TARBIYA — YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM POYDEVORI

Yangi O'zbekiston aynan maktab ostonasidan, ta'limga tizimidan boshlanadi, mamlakat taraqqiyoti ilm-fan va innovatsiyaga tayanadi. Zero, maktabgacha ta'limga maktab ta'limi, olyi va o'rta maxsus ta'limga tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarini **Uchinchchi Renessansning to'rt uzviy halqasi**, bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-jiduy ziyo'lilarimiz esa yangi Uyg'onish davri, globallashuv davrida mamlakatimiz raqobatbardoshligining to'rt tayanch ustunidir.

Shu munosabat bilan nomzodimiz Shavkat Mirziyoyev dasturida bu yo'naliishda quyidagi vazifalar ustuvor, deb belgilandi.

Birinchidan, 2030-yilga qadar maktabgacha ta'limga ehtiyojini to'liq qoplab, qamrovni 100 foizga yetkazish va bog'chalarning moddigi-texnik bazasini rivojlantirish. Ushbu maqsadda:

- 7 foizlik stavkada 10 yil muddatga kredit berish uchun imkoniyat yaratilib, ishlab chiqarish korxonalarining bog'cha qurishga sarf etiladigan xarajatlarini soliqlardan to'la ozod qizil tartibi ishlab chiqiladi;

- 2030-yilga qadar qo'shimcha 2 mingta bog'cha qurish choralar ko'rildi;

- ehtiyojmand oilalar farzandlari uchun bog'cha, jumladan, xususiy bog'cha xarajatlarini davlat tomonidan qoplab berish tartibi joriy etiladi;

- har bir bog'chani kompyuter sinfi bilan ta'minlash choralar ko'rildi. Bu o'z navbatida bolalarni erta yoshdan boshlab zamonaviy axborot texnologiyalariga o'rgatishga va ularning kelajakda yuksak salohiyatga ega bo'lishiha xizmat qiladi.

